

O'QUVCHI YOSHLARNI JISMONIY TARBIYA VA SPORTGA BO'LGAN QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Xasonova Sh.R.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti

Sport o'yinlari kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada jismoniy tarbiya va sportning maqsadi, o'quvchi yoshlar hayotidagi ahamiyati, maktab o'quvchilarining jismoniy tarbiya va sportga yo'naltirishdagi muammolar va ularni jismoniy tarbiya va sportga qiziqtirish va jalb etish yo'llari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar. Jismoniy tarbiya, sport, ta'lim, tarbiya, barkamol shaxs, millat, intellektual salohiyat, ko'nikma, malaka, maktab, ota-ona, dastur, motivatsiya.

Jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishni bundan qariyb ming yil oldin yashagan allomalarimizdan Ibn Sino aqliy, axloqiy tarbiya bilan bir qatorda, inson kamolotida jismoniy tarbiyaning muhim ahamiyatini ham nazariy, ham amaliy jihatdan tahlil yetadi. Ibn Sinogacha insonning kamolga yetishida jismoniy tarbiyaning ta'siri haqida bir butun, yaxlit, ta'limot yaratilmagan edi. Ibn Sino birinchi bo'lib jismoniy tarbiyaning ilmiy pedagogik jihatdan bir butun tizimini yaratdi.

Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit-qizlarini har tomonlama rivojlangan barkamol shaxslar etib, voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilgan. Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari bo'lajak yosh avlodni turli nazariy bilimlarni, jismoniy tarbiya tizimining rivojlanish tarixiy qonuniyatlari, metodlari, vositalarini o'rgatish hamda jismoniy tarbiyaning xususiyatlari haqida atroflicha va chuqur bilimlar berish bilan birga ularni kelajakdagi ish faoliyatlarida amaliy ahamiyat kasb etuvchi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Jismoniy tarbiya bolalarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi [3]. Yuqori darajada rivojlangan ishlab chiqarishga asoslangan mavjud ijtimoiy sharoit jismonan baquvvat, ishlab chiqarish jarayonida yuqori unum bilan ishlashga qodir, qiyinchiliklardan cho'chimaydigan, shuningdek, Vatan himoyasiga doimo tayyor bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash zarurligini ko'rsatmoqda.

Jismoniy tarbiya jarayoni o'ziga ta'lim, tarbiya, rivojlanish va sog'likni saqlash bo'yicha kompleks dasturni birlashtiradi.

Bugungi kunda millatning jismoniy salomatligi muammosi kundan-kunga kuchayib bormoqda. Shuning uchun jismoniy tarbiya va sportga davlat darajasida e'tibor berilmoqda. Aholini jismoniy salomatligi bo'yicha milliy dasturlar ishlab chiqilmoqda va amalga oshirilmoqda. Avvalo, yosh avlodga va ularning jismoniy holatiga e'tibor qaratilmoqda.

Shunga qaramasdan jismoniy tarbiya va sportga aholini, ayniqsa maktab o'quvchilarini keng jalb qilishda haligacha kamchiliklar mavjud.

Bunga sabab qilib quyidagilarni:

- avvalo oilada kattalar tamonidan sog'lom turmush tarziga asoslangan holda hayot kechirishning mavjud emasligi, o'quvchilar va ularning ota-onalarining jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlikning ahamiyatlilik darajasini tushunmaslik;

- oila tarbiyasida ya'ni ota-ona tamonidan jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga nisbatan bolalarga motivatsiyaning berilmasligi;

- o'quvchilar mustaqil ravishda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishda zarur bilim va ko'nikmalarining yetarli emasligi;

- maktab sharoitida jismoniy tarbiya o'qituvchilari tamonidan jismoniy tarbiya va sportga qiziqtirish, yo'naltirish ishlarining samarali yo'lga qo'yilmaganligi;

- maktabdagi jismoniy tarbiya darslariga o'quvchilarning faqat jarayon sifatida ya'ni ma'lum standartlarnigina bajarish sifatida qarashi, agar bu me'yorni bajara olmasa, o'zi uchun foydali deb hisoblagan internet tarmoqlarida ko'p vaqtini o'tkazish kabi sabablarni ko'rsatish mumkin [2].

Bunday vaziyatda uzoq vaqt davomida ommaviy sportni rivojlantirish uchun aniq mablag' sarflash mumkin, lekin o'quvchilar ongida biror narsa o'zgarmaguncha hech qanday natija bo'lmaydi.

Bunga erishish uchun albatta oila-maktab hamkorligi asosida ishlab chiqilgan dasturga asosan, avvalo, ota-onalarga jismoniy tarbiya va ommaviy sportning salomatlikni saqlashdagi ahamiyati to'g'risida, farzandlarining barkamol shaxs sifatida o'sishida qanchalik zarurligi to'g'risidagi kabi ma'lumotlarga ega qilish, farzandlariga jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari uchun sharoit yaratib berishga undash [1] va shuningdek, maktab jamoasi va o'quvchi yoshlar o'rtasida o'tkaziladigan jismoniy tarbiya va ommaviy sport tadbirlarini, musobaqalarini yuqori saviyada o'tkazish, faol o'quvchilarni doimiy rag'batlantirib borish, sport bo'yicha sayohatlar tashkil qilish kabi motivatsion tadbirlar orqali o'quvchi yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sportga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, o'quvchilarning hayot sifatini yaxshilash va har tamonlama barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishlariga yordam berish mumkin.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib, aytish mumkinki maktab o'quvchilarini jismoniy tarbiya va ommaviy sportga qiziqtirishda uch tamonlama ya'ni o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib ta'sir ko'rsatish, maktab sharoitida jismoniy tarbiya tadbirlarini samarali tashkil qilib, va oilaviy muhitda jismoniy tarbiya va ommaviy sport

bilan shug'ullanishni hayot tarzining bir bo'lagiga aylantirish orqali o'quvchilarda jismoniy tarbiya va sportga keng qamrab olish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Ma'murov B.B. Bolalar rivojlanishida jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent "Turon Zamin Ziyos" 2014 y.
2. Махкамжонов К., Иноземцева Л., Нурматов Ф., Рустамов Л. Спорт байрамларини ташкил қилиш ва ўтказиш методикаси. Дарслик. Тошкент 2008 й.
3. Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Darslik. Toshkent 2015 y.